O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
KOSONSOY TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar 29-6-80-Q/23 Kosonsoy tuman hokimligi

Kosonsoy tumanidagi tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish normalarini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari, “O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida”gi Qonuni 12, 30, 32-34, 44, 45-moddalari, “Davlat xizmatlari yagona reestri”ga (ro’yxat raqami 3181, 2019 yil 13 sentyabr) asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Kosonsoy tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo’limining 2022 yil xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kosonsoy tumanidagi tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish normalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kosonsoy tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo’limi (M.Tursunov) va qishloq xo’jaligi bo’limi (Q.Ashurov.) mazkur qaror bilan tasdiqlangan normalarga rioya etilishini nazorat qilib borsin.

4. Ushbu qaror “Kosonsoynoma” gazetasining navbatdagi sonida rasman e’lon qilinsin hamda bir ish kuni ichida hokimlikning rasmiy veb-saytiga (Kosonsoy24.uz) joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy

o’tgach kuchga kiradi.

6. Mazkur qarordan norozi shaxslar yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o’rinbosari (A.Xudoyberdiyev) zimmasiga yuklansin.

Туман ҳокими **Д.Кадиров**

Kosonsoy tuman hokimining
2023 yil 13 yanvardagi
29-6-80-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Kosonsoy tumanidagi tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish

NORMALARI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu tartib jismoniy va yuridik shaxslar (keyingi o’rinlarda foydalanuvchilar) tomonidan Kosonsoy tumanidagi tabiiy pichanzor va yaylovlarda yovvoyi holda o’suvchi pichanlarni chorvachilik ehtiyojlari uchun o’rish (keyingi o’rinlarda tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish) normalarini belgilaydi.

2. Ushbu normalar quyidagilarga nisbatan qo’llanilmaydi:

davlat o’rmon fondining tabiiy pichanzor va yaylovlariga;

jismoniy va yuridik shaxslarning egaligidagi yoki foydalanuvidagi pichanzor va yaylovlarga.

3. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish o’simlik dunyosi ob’ektlaridan maxsus foydalanish hisoblanadi.

II. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish uchun qo’yiladigan talablar

4. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish ushbu maqsadlarga mo’ljallangan yoki maxsus berib qo’yilgan, shu jumladan zaxira yerlaridagi tabiiy pichanzor va yaylovlarda amalga oshiriladi.

5. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish ruxsatnoma asosida hamda haq evaziga amalga oshiriladi.

6. Foydalanuvchilarga ruxsatnomalar Namangan viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan beriladi.

7. Ruxsatnoma “O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida”gi Qonunda belgilangan tartibda hamda tasdiqlangan kvotalar doirasida beriladi.

8. Tabiiy pichanzor va yaylovlar pichan o’rish uchun foydalanuvchilarga doimiy yoki vaqtincha (uzoq muddatli va qisqa muddatli) foydalanishga berilishi mumkin.

9. Qisqa muddatli foydalanish 3 yilgacha, uzoq muddatli foydalanish 3 yildan 10 yilgacha bo’lgan muddatni o’z ichiga oladi. Foydalanish muddati ruxsatnomada ko’rsatib o’tiladi.

10. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish yilning bahor, yoz va kuz fasllarida amalga oshiriladi.

11. Foydalanuvchilar tomonidan tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish kunnning istalgan vaqtida amalga oshirilishi mumkin Bunda boshqa shaxslarga halal qilinmasligi, shu jumladan fuqarolar tinchini buzuvchi baland ovozdagi shovqinlar chiqarilmasligi lozim.

12. Foydalanuvchilar tomonidan pichan o’rish ruxsatnomada ko’rsatilgan hudud va belgilangan muddatlarda amalga oshirilib, uning miqdori cheklanmaydi.

13. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichanlarni ildiz qismi bilan o’rish mumkin emas.

14. Foydalanuvchilar yoki boshqa shaxslar tomonidan tabiiy pichanzor va yaylovlarni o’zboshimchalik bilan yo’q qilib yuborish, shu jumladan yoqib yuborish taqiqlanadi.

15. O’zboshimchalik bilan tabiiy pichanzor va yaylovlarga yetkazilgan zarar yoki nobudgarchiliklar ushbu zarar yoki nobudgarchilikni keltirib chiqargan shaxs tomonidan qoplanadi.

16. Foydalanuvchilar tabiiy pichanzor va yaylovlardan foydalanishda quyidagi huquqlarga ega:

tabiiy pichanzor va yaylovlar va yaylovdan ushbu normalarga o’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risidagi qonunchilikka muvofiq foydalanish;

buzilgan huquqlarini tiklash va o’ziga yetkazilgan zarar o’rnini qoplash;

ruxsatnomada ko’rsatilgan huquqlardan to’laqonli foydalanish;

belgilangan muddatlarda pichan o’rishni amalga oshirish;

“O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida”gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqlardan foydalanish.

17. Foydalanuvchilar tabiiy pichanzor va yaylovlardan foydalanishda quyidagilarga amalga qilishi lozim:

o’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida belgilangan qoida va normalarga rioya etish;

tabiiy pichanzor va yaylovlardan oqilona foydalanish;

tabiiy pichanzor va yaylovlarga zarar yetkazmaslik;

pichanlarni takror ko’paytirish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yong’in xavfsizligiga rioya etishi va yong’inga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi, yong’inlar chiqqan hollarda esa ularni o’chirish choralarini ko’rish;

maxsus foydalanganlik uchun haqni o’z vaqtida to’lash;

boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini buzmaslik;

o’ziga berilgan ruxsatnomadan boshqa shaxslar foydalanishiga yo’l qo’ymaslik;

o’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risidagi qonunchilik talablarini buzgan holda yetkazilgan zararning o’rnini to’liq hajmda qoplash;

“O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida”gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan qoidalarga amal qilish.

III. Yakunlovchi qoidalar

18. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda pichan o’rish bilan bog’liq nizolar tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo’limi, qishloq xo’jaligi bo’limi, tuman hokimligi hamda boshqa vakolatli organlar tomonidan yoki sud tartibida hal etiladi.

19. Ushbu normalarga rioya etilishini nazorat qilish tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo’limi tomonidan amalga oshiriladi.

20. Ushbu normalarni buzgan aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo’ladilar.